

UDK: 633.854.78;631.816.1

**KUNGABOQAR URUG'LARINING LABORATORIYA SHAROITIDA
UNUVCHANLIGINING O'SUV DAVRIGA TA'SIRI**

Ro'zmanov Abdullo Norboy o'g'li

Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti tayanch

Almashlab ekish va tuproqqa nishlov berish"

laboratoriyasi tayanch doktoranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanidagi sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar sharoitida Takroriy ekin sifatida kungaboqar ekinini ekish muddatlarini hosildorlik va moydorligiga ta'sirini o'rganish. Takroriy ekin kungaboqar navlarining o'suv davri 1-muddatda (20.06.2022) ekilganda 80-85 kunda, 2-muddatda (30.06.2022) ekilganda 83-88 kunda, 3-muddatda (10.07.2022) ekilganda 85-90 kunda to'liq pishganligi aniqlandi. Bunda o'simliklarning ekish muddatlarining kechikib borishi o'suv davrining qisqa bo'lishi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: takroriy ekin kungaboqar, iqlim, tuproq, urug', muddat, harorat, o'suv davri, to'liq pishish.

Annotatsiya. В данной статье исследуется влияние сроков посева подсолнечника как повторной культуры на урожайность и урожайность масличных культур в условиях орошаемых светло-серых почв Каршинского района Кашкадарьинской области. Установлено, что вегетационный период сортов подсолнечника повторного посева составляет 80-85 дней при посеве в 1-й срок (20.06.2022), 83-88 дней при посеве во 2-й срок (30.06.2022), 85-90 дней при посеве в 3-й срок (10.07.2022). В нем говорится, что более поздние сроки посадки растений означают более короткий вегетационный период.

Klyucheverye slova: повторный посев подсолнечника, климат, почва, семена, срок годности, температура, вегетационный период, полное созревание.

Abstract. This article examines the influence of the timing of sunflower sowing as a repeat crop on the yield and yield of oilseeds in the conditions of irrigated light gray soils of the Karshi district of Kashkadarya region. It is established that the growing season of sunflower varieties of repeated sowing is 80-85 days when sown in the 1st term (20.06.2022), 83-88 days when sown in the 2nd term (30.06.2022), 85-90 days when sown in the 3rd term (10.07.2022). It says that later planting dates mean a shorter growing season.

Key words: repeated sowing of sunflower, climate, soil, seeds, shelf life, temperature, growing season, full ripening.

Mavzusining dolzarbligi. Bugungi kunda «dunyoda sug'oriladigan maydonlar

1,6 mlrd gektarni tashkil qiladi. Shundan, 7,4 mlrd aholini o‘simlik moyiga bo‘lgan talabini qondirish maqsadida qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan 23 mln gektarga yaqin yer maydonida kungaboqar o‘simligini yetishtirilmoqda»¹. Keyingi yillarda aholi sonini ortib borishi natijasida, o‘simlik moyiga bo‘lgan talab ham ortib bormoqda. Shu sababli moy uchun kungaboqar o‘simligini takroriy ekin sifatida yetishtirishda ekish muddatlari, o‘g‘it me‘yorlarni qo‘llash orqali uning hosildorligiga va moydorligiga ta‘sirini aniqlashning iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lgan agrotadbirlarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Dunyoda o‘simlik moyini ishlab chiqarish uchun kungaboqar yetishtirishda zamonaviy agrotexnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha bir qator ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy ishlar olib borilmoqda. Bu borada, har bir mintaqalarning tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqib, kungaboqar yetishtirishda maqbul ekish muddatlari, oziqlantirish me‘yorlarini belgilash orqali iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lgan kungaboqar yetishtirish agrotadbirlarni ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda turli tuproq-iqlim sharoitlarida moyli ekinlarni yetishtirishda uning hosildorligi va moydorligiga ekish muddatlari hamda o‘g‘it qo‘llash me‘yorlarining ta‘siri bo‘yicha agrotadbirlari olib borilib muayyan natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘chiligini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarorida «tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqib moyli, dukkakli va ozuqa ekinlarining turlari hamda navlari bo‘yicha joylashtirish»² bo‘yicha vazifalar belgilab berilgan. Shu sababli, qishloq xo‘jaligida sug‘oriladigan maydonlarda takroriy ekin sifatida kungaboqar yetishtirishda uning hosildorligi va moydorligini oshiradigan iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lgan agrotadbirlarni ishlab chiqish respublikamiz uchun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 yanvardagi №4118-sonli «Yog‘-moy tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar va sohani boshqarishda bozor mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida»gi va 2022 yil 28 yanvardagi PQ-106 sonli «Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘chiligini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi. Ammo Respublikamizning barcha tuproq-iqlim sharoitlarida kungaboqar yetishtirish bo‘yicha yetarlicha ilmiy tadqiqotlarga asoslangan agrotadbirlar ishlab chiqilmagan bo‘lib, Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanida tarqalgan sug‘oriladigan tuproq-iqlim sharoitida takroriy ekin sifatida kungaboqar

¹ <https://www.fao.org>.2019

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PQ-106 son «Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘chiligini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori

yetishtirishda maqbul ekish muddatlari va ma'dan o'g'itlar hamda stimulyatorlar bilan oziqlantirish me'yorlari bo'yicha agrotadbirlar ishlab chiqilmagan.

Shu bois, Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar sharoitida kungaboqar ekinini takroriy ekin sifatida yetishtirish bo'yicha 3 ta muddatda, 2 ta oziqlantirish usulida (ma'dan o'g'itlar me'yorlar va stimulyatorlar) ekib o'rganishni maqsad qildik.

Tadqiqot maqsadi Takroriy ekin sifatida ekishga mo'ljallangan kungaboqarning "Diyor" va "Jahongir" navlarining laboratoriya sharoitida unuvchanligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot uslublari. Tadqiqot Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti markaziy tajriba uchastkasida olib borildi. Tadqiqotlarda Takroriy ekin sifatida ekilgan kungaboqarning "Diyor" va "Jahongir" navlari 20 iyun, 30 iyun va 10 iyul sanalarida unuvchan urug' hisobida ekildi.

Tadqiqot natijalari.

Kungaboqar urug'larining laboratoriya sharoitida unuvchanligi					
№	Ekin turi	Navi	Petri chashkadagi urug'lar soni, dona	Petri chashkadagi urug'lar soni, dona	Unuvchanligi, %
1	Kungaboqar	Jahongir	50	48	96
2	Kungaboqar	Jahongir	50	49	98
3	Kungaboqar	Jahongir	50	48	96
O'rtacha					97
1	Kungaboqar	Diyor	50	44	88
2	Kungaboqar	Diyor	50	48	96
3	Kungaboqar	Diyor	50	47	94
O'rtacha					93

Fenologik kuzatish, hisob va tahlillar Umumittifoq O'simlikshunoslik instituti uslubi va Dala tajribalarni o'tkazish uslublar bo'yicha olib borildi.

Barcha fenologik kuzatuvlar tajribaning I-II-III takrorlanishlarning barcha variantlarida 1 m² hajmda belgilangan 3 nuqtada olib borildi. Kungaboqarda fenologik kuzatuvlarni o'tkazishda «Metodika Gosudarstvennogo sortoispytaniya selskoxozyaystvennykh kultur» (1964) qo'llanmasidan foydalanildi.

O'simlikning biomassasini aniqlash uchun tajribaning barcha takrorlashlar va variantlarida belgilangan 1m² hajmdagi 3 nuqtadan olingan namunalar yordamida tarozida tortish yo'li bilan aniqlandi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, kungaboqarning “Jahongir” navi “Diyor” naviga nisbatan unuvchanligi 4% yuqori ko‘rsatkichga ega ekanligi tajribalarda o‘z isbotini topdi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. ¹ <https://www.fao.org.2019>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PQ-106 son «Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘chiligini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori
3. Azizov T., Anorboyev I., To‘xtayeva S. Takroriy kungaboqar yetishtirish bo‘yicha tavsiyalar. <https://agro.uz/uzsrvice/recomendations/4613>
3. Dala tajribalarni olib borish uslublari. (2007). O‘zPITI.
4. Dospexov B.A. (1985). Методы полевого опыта. Agropromizdat.
5. Tursunov L.T., Bobonorov R., Vakilov A., Yusupov S. Qashqadaryo havzasi hududi tuproqlari. –Toshkent, Turon – iqbol. 2008. – 248 b.